

## LOGOPEDNING RINOLALIYADA OLIB BORADIGAN KORREKSION ISHLARI

*Dilshoda Ikromova*

*Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti  
Maxsus pedagogika yo`nalishi 2-bosqich talabasi.*

*Ilmiy rahbar: D.D.Oribboeva*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda tez-tez duch kelinayotgan nutq nuqsoni rinolaliya to`g`risida ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari bu nutq nuqsonida olib borilishi lozim bo`lgan korreksion ishlar haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek rinolaliya nutq nuqsonini korreksiyalashda logopedik o`yinlar va korreksion mashg`ulotlarni olib borishda tizimlilikning ahamiyati oolib berilgan.

**Kalit so`zlar:** yumshoq tanglay, qattiq tanglay, shivirlab gapirish, korreksion mashg`ulot, talaffuzdagi kamchiliklar, nafas mashqlari.

**Аннотация:** В данной статье представлены сведения о ринолалии – речевом заболевании, которое часто встречается в наши дни. Кроме того, имеются сведения о коррекционных работах, которые следует проводить при данном речевом дефекте. Также выявлено значение системности в проведении логопедических игр и коррекционных упражнений при коррекции дефекта речи ринолалии.

**Ключевые слова:** мягкое небо, твердое небо, шепот, коррекционная тренировка, нарушения произношения, дыхательные упражнения.


**Abstract:** This article presents information about rhinolalia, a speech disorder that is often encountered today. In addition, there is information about correctional works that should be carried out in this speech defect. Also, the importance of systematicity in conducting logopedic games and corrective exercises in the correction of rhinolalia speech defect is revealed.

**Key words:** soft palate, hard palate, whispering, corrective training, pronunciation deficiencies, breathing exercises.

Rinolaliya nutq apparatining anatomik va fiziologik kamchiliklari sababli ovoz tembri va tovushlar talaffuzidagi buzilishlardir. Rinolaliyani dislaliya va boshqa ovoz buzilishlaridan ajrata bilishimiz zarur. Rinolaliya lab va tanglay yoriqlari bilan izohlanadi, ya`ni bu kasallikda tovushlarni burun-dimoq bilan talaffuz qilish xollari sodir bo`ladi. Rinolaliyada tovushlar artikulatsiyasi, fonatsiya, tovush hosil bo`lish mexanizmlari jiddiy ravishda normadan chetga chiqishi kuzatiladi.

Tanglay-halqum birlashish funksiyasining buzilish xarakteriga ko`ra rinolaliya uch shakilga ajraladi.

## Rinolaliya nutq nuqsoni quydagi 3 shakilga ajraladi



Yopiq rinolaliya burun bo`shlig`idagi organik o`zgarishlar yoki tanglay-halqum birlashishining funksional buzilishidir. Nutq tovushlarini talaffuz qilish vaqtida fiziologik burun rezonansining pasayishi natijasida yuzaga keladi.

Ochiq rinolaliyada og`iz bo`shlig`ida hosil bo`luvchi tovushlar dimog`da talaffuz etiladi. Unli tovushlarda tembr sezilarli darajada o`zgaradi.

Aralash rinolaliya turi burun rezonansining patalogik kamayganligi sababli havoning burundan chiqib ketishi bilan izohlanadi, oqibatda barcha nutq tovushlarining artikuatsion va akustik tomondan buzilish kuzatiladi.

Rinolaliyadagi lab va tanglay yoriqlari tibbiy jarrohlik amalyotlari yordamida berkitilishi mumkin, ammo nutqdagi kamchiliklar bartaraf bo`lmaydi. Nutqdagi kamchiliklarni bartaraf etishda logoped korreksion ishlarini olib borishi lozim.

Rinolaliya kasalligini ko`plab olimlar o`rganishgan. Ulardan biri A.G.Ippalitova bo`lib, uning metodikasiga ko`ra logopedik ta`sir ko`rsatish jarayoni ikki davirga bo`linadi.

I.Tayyorlov davr.

II.Asosiy davr.

Bugungi zamonaviy logopediyada ham A.G.Ippalitovaning logopedik metodikasidan keng foydalanilmoqda. Tanglaydagi yoriqliklar sabab burun, hiqildaq rezanatorlik tuzilishini asimetrik holatga olib keladi. Yumshoq tanglaydagi anatomic va funksional asimetriyasi vaqt o`tishi bilan ovozning funksional asimetriyasiga olib keladi. Bu holat o`z navbatida ovoz kuchini pasaytiradi, uni qisilgan, zaif holatga keltirib qo`yadi.

SHuning uchun rinolaliyada operatsiyadan keyingi korreksion ishlarning asosiy maqsasdi yumshoq tanglay harakatchanligini oshirish va undagi operatsiya natijasida hosil bo`lgan chandiq o`rnini bilinmaydigan holatga keltirishdir. Boladagi yumshoq tanglayning harakatsizligi bola nutqidagi kamchiliklarni keltirib chiqadi. Buni quydagicha tekshirish mumkin. Bola tilining orqa qismiga shpatel yordamida bosiladi va boladan ovoz chiqarish so`raladi. Shunda qattiq tanglay davomida joylashgan yumshoq tanglayning me`yorda ko`tarilmaganini ko`rish mumkin.

Rinolalik bolalarda yumshoq tanglay harakatchangligini oshirishda tabiiy massaj usullaridan foydakanish ko`proq samara beradi. Bular quydagilar:

a) bola og`ziga iliq suv olib tonog`ida tutib turishi va chayishi kerak bo`ladi. Huddi shu mashq avval suv bilan, so`ng esa suvsiz bajariladi.

b) esnash yordamida ham yumshoq tanglay karakatchangligini oshirish mumkin. Bunda esnash ikki-uch marta ketma ket amalga oshiriladi.

d) shivirlab gapirish. Shivirlab gapirish jarayonida bolaning yumshoq tanglayi faol ishtirok etadi. Shivirlab gapitishni birinchilardan bo`lib Beyss fanga olib kirgan.

Rinolalik bolalarda operatsiyadan avval va so`ng olib boriladigan ishlardan asosiysi bu to`g`ri nafas olishni yo`lga qo`yishdir. Sababi rinolaliya kasalligida nafas olish jarayonida kamchiliklar kuzatiladi. Bunda nafas nutq jarayonida og`iz va burundan teng taqsimda chiqmaydi, balki havoning ko`p qismi burundan chiqadi. Manashu tufayli ham talaffuzda kamchiliklar yuzaga keladi. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun avval bolada to`g`ri nafas olish malakasini shakillantirish lozim. Buning uchun quydagi mashqlar tavsiya etiladi. Bu mashqlarni bajarishda bolani qiziqtirish va e'tiborini jalg qilish uchun turli xildagi qiziqarli didaktik o`yinlardan foydalanishimiz mumkin.

1) burundan chuqur nafas olib og`izdan chiqarish.

Biz didaktik o`yinda foydalanamiz. Bizga qo`l mehnati yordamida yasalgan foodboll maydoni, ikkita naycha, bitta tenis shari kerak bo`ladi. Logoped bola bilan birgalikda foodboll o`yinini o`ynaydi. Bunda naychalar yordamida puflab tenis sharini siljililadi. Bu o`yin ko`proq o`gil bolalarga tavsiya qilinadi.

2) og`izdan chuqur nafas olib og`izdan chuqur chiqarish.

Bu mashq uchun bizga sham va qisqich kerak bo`ladi. Bolaning burinlari qisqich yordamida berkitamiz so`ng bolalning qarshisiga shamni yoqib, boladan chuqur nafas olib shamni o`chirishi so`raladi. Bu holatni 3-4 marotaba takrorlaymiz.

3) og`izdan chuqur nafas olib burindan chiqarish

4) burundan chuqur nafas olib burundan chuqur chiqarish.

Logoped qo`lida paxta bo`lagini tutib turadi va bolaga burundan chuqur nafas olib og`izdan chiqargan havo orqali paxta bo`lagini uchirib yuborishi so`raladi. Huddi shu mashq burundan chuqur nafas olib burundan chiqgan havo bilan paxta bo`lagini uchurib yuborish bilan almashtiriladi.

Stakanga suv solinadi va naycha yordamida suvni bir tekkisda qaynatish mashqi bajariladi. Bunda bolaga suvni uzoq muddat bir tekkis qaynatib turishi so`raladi. Kegin bu harakat boshqasiga almashtiriladi: chuqur nafas olib bo`lib-bo`lib qaynatish.

Shar shishirish mashqi. Bu mashq yordamida bolaning o`pka tiriklik sig`imi ortadi natijada bola nutq jarayonida nafas yetishmovchiligidan va noto`g`ri taqsimlanishdan halos bo`ladi.

Bunday mashqlardan foydalanish jarayonida logoped ko`proq bolaning etiborini jalg qiluvchi detallardan foydalanishi kerak. Bu bolani mashg`ulotga bo`lgan qiziqishini oshiradi va tez charchab qolishni oldini oladi. Masalan, bolada to`g`ri nafas

olish malakalarini shakillantiruvchi “qorparcha” mashqidan foydalanishimiz mumkin. Buning uchun po`kakdan qorparcha shakillarini yasab olinadi va “P” shaklida kesilgan qog`ozga uzun iplar bog`lab chiqiladi, iplar uchiga qorparchalarni yopishtiriladi. Boladan “qani sen qancha ko`p qorparcha uchira olar ekansan?” deb so`raladi va bola qorparchalarini uchirishga harakat qiladi. Nechta qorparcha uchganiga qarab bolaning nafas kuchini aniqlash mumkin.

Bundan tashqari yana baliq ovi o`yinidan foydalanishimiz mumkin. Buzga qo`l mehnati yordamida yasalgan akvaryum, turli xil ragdagি rangli qog`ozdan kesib olingan baliq shakillari va naycha kerak bo`ladi. Baliqchalarni akvaryumga joylab, boladan naycha yordamida boshqa idishaga olib o`tishini so`raladi. Bu didaktik o`yin davomida bola baliqlarni tutish uchun chuqur nafas oladi, boshqa idishga olib o`tish vaqtida nafasni ichida tutib turadi, baliqni boshqa idishga solishda chuqur nafas chiqaradi.

Nafas mashqlaridan so`ng til va lab mashqlari o`tkaziladi. Til va lab mashiqlariga quydagilar kiradi:

1. Baqa mashqi
2. Kartumcha mashqi
3. Shirin murabbo mashqi
4. Arg`imchoq mashqi
5. Otcha mashqi va boshqalar.

Xulosa o`rnida shuni aytish kerakki logoped olib borayotgan metodlar qanday tashkil etilayotganiga qarab boladagi o`zgarishlar samarasini ko`rish mumkin. Rinolaliya nutq nuqsonini korreksiyalashda bolada nutqqa bo`lgan ehtiyojni oshirish va talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etishda korreksion mashg`ulotlarni tizimli ravishda olib boorish kerak. Bu to`g`ri tizmli tashkil etilgan mashg`ulotlar bolada o`z nutqidan uyalmaslik, tashabbuskorlik sifatlarini shakilantirishga, faol nutq malakalarini mustaxkamlashga va og`zaki nutqni shakillanishiga zamin yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. MY.Ayupova “Speech therapy (textbook)” Publishing House of the National Society of Philosophers of Uzbekistan (2011).
2. M.Y.Ayupova.”Speech therapy” Publishing House of the National Society of Philosophers of Uzbekistan. (2007)
3. Raxmanova V.S Korreksion pedagogika va logopediya Toshkent “IQTISOD-MOLIYA” 2007.
4. Jo`rayevich Yuldashev Sodirjon “ORGANIZATIONAL AND METHODOLOGICAL WORC NECESSARY FOR THE INTRODUKTION OF INCLUSIVE EDUKATION INTO PRACTICE” INTERNATIONAL JOURNAL OF

SOCIALSCIENCE &INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11 11(2022): 155-158.

5. Sadikovna Rakhimova Khurshidakhon. "METHODS OF WORKING ON DIALOGICAL SPEECH IN OUT-OF-COURSE ACTIVITIES WITH HEARING-IMPAIRED STUDENTS. "Web of scientist:International Scientific Research Journal. 3.11(2022): 521-527.

6. Abdulazizova SHaxnoza Muhammadsolih qizi. RINOLALIYADA OPERATSIYADAN KEYINGI KORREKSION ISHLAR. Conference Zone. <http://www.conferencezone.org>

7. Rinolaliyada ovoz buzilishi va uni korreksiyalash. Hozir.org <http://hozir.org>

8. Aralash rinolaliya-M.S.Maxmudova Logopediya. Fayllar.org. <http://fayllar.org>

9. Logopediya. Ayupova.M.Y. Namangan davlat pedagogika institute <https://e-library.namdu.uz>